



## 2020-yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3035,5 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **91,6 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **808,0 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **104,7 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **26,6 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **34,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalaridan tomonidan 3035,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 91,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 80,6 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 107,7 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 97,0 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 53,2 % ni tashkil etdi.

### 2020-yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi







### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 295,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,7 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmining – 2,6 martani, gaz kondensati – 123,4 % ni, neft qazib olish – 126,4 % ni, qum – 71,6 % ni, shag'al – 49,9 ni, chaqiq tosh – 104,3 % ni tashkil etdi.

### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	<b>Tabiiy gaz, mln. kub m.</b>		
247,7		641,5	2,6 M. ↑
	<b>Gaz kondensati, ming t.</b>		
58,9		72,7	123,4 ↑
	<b>Neft, ming t.</b>		
5,2		6,6	126,4 ↑
	<b>Qum, ming t.</b>		
34,3		24,6	71,6 ↓

2019-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
<b>Shag'al, ming t.</b>			
38,4		19,2	49,9 ↓
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>			
21,5		22,4	104,3 ↑


***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2139,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 70,5 % ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %**







O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni, o'rta - yuqori texnologiyali – 32,9 %, o'rta - quyi texnologiyali – 5,1 % va quyi texnologiyali – 61,9 % tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %**



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta tolasi – 54,0 % ni, trikotaj polotnolar – 71,1 % ni, yumshoq bug`doy va spelta uni – 102,9 % ni, ip-kalava– 144,5 % ni, plastmassa quvurlar – 184,8 % ni, alkogol ichimliklar – 84,0 % ni, kaliy xlorid – 107,9 % ni va polietilen – 98,8 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2019-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
29419,0	<b>Paxta tolasi, t.</b> 	15895,0	54,0 ↓
280,0	<b>Trikotaj polotnolar, t.</b> 	199,1	71,1 ↓
35501,1	<b>Yumshoq bug`doy va spelta uni, t.</b> 	36521,7	102,9 ↑
5204,0	<b>Ip-kalava, t.</b> 	6746,0	144,5 ↑
69,8	<b>Plastmassa quvurlar, t.</b> 	129,0	184,8 ↑
614,0	<b>Alkogol ichimliklar, ming litr</b> 	516,0	84,0 ↓

2019-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
45,0	<b>Kaliy xlorid, ming t. K2O</b> 	48,6	107,9 ↑
35,2	<b>Polietilen, ming t.</b> 	34,8	98,8 ↓



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

2020-yil yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 578,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,1 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 20,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 36,9 % ga oshganligini, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish va utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 76,4 % ga kamayganligi kuzatildi.



### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

2020-yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 808,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 26,6 % ni tashkil etdi.

### ***2020-yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



2020-yil yanvar-mart oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 58,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 41,3 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 1,8 % tashkil etdi.

**Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**




**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 478,9 mlrd. so`mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 15,8 % ni tashkil etdi.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarning sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**

**2020-yil yanvar-mart**




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlab korxonalarining ulushi 57,3 %, ishlab chiqarilgan sanoat korxonalari ulushi 42,7 % ni tashkil etdi.

### ***Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.***

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush G'uzor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 21,2 %), Nishon tumani (19,8 %), Qarshi shahri (17,3 %), Muborak (6,6 %) Koson (6,1 %) va Qarshi (5,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### ***2020-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da***







Shu bilan birga eng kam ulush Kasbi (1,7 %), Mirishkor (2,2 %), Yakkabog' (2,2 %) va Qamashi (2,4 %), Shahrisabz (2,5 %) va Chiroqchi (2,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan G`uzor tumani 643,2 mlrd. so`mni, Nishon tumani 601,8 mlrd. so`mni, Qarshi shahri 525,0 mlrd. so`mni va Muborak tumani 200,5 mlrd. so`mni tashkil etdi.

***2020 yilning yanvar - mart oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi***



**2020-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2019-yil yanvar–mart oylariga nisbatan, % da**



● 2019 yil yanvar-martga nisbatan, % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Chiroqchi tumanida (2019 yil yanvar–mart oylariga nisbatan 125,6 %), Shahrisabz tumanida (113,7 %), Kitob tumanida (108,2 %), Muborak tumanida (105,5 %), G'uzor tumanida (105,5 %) va Shahrisabz shahrida (104,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

### 2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo`yicha iste`mol mollari ishlab chiqarish hajmi va o`shish sur`ati



	Mrd. so`m	2019 yil yanvar-martga nisbatan o`shish, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>808,0</b>	<b>104,5</b>
Qarshi sh.	265,5	104,1
Shahrisabz sh.	53,5	102,9
tumanlar:		
G'uzor	18,9	107,9
Dehqonobod	12,5	108,0
Qamashi	37,8	108,3
Qarshi	41,3	108,3
Koson	72,9	88,1
Kitob	49,6	108,6
Mirishkor	17,4	108,2
Muborak	17,5	108,2
Nishon	18,8	108,3
Kasbi	21,7	108,4
Chiroqchi	46,1	108,4
Shahrisabz	70,2	108,1
Yakkabog`	64,3	113,1

Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Yakkabog` tumanida (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 113,1 % ni), Kitob tumanida (108,6 % ni), Chiroqchi tumanida (108,4 % ni) va Kasbi tumanida (108,4 % ni) Qamashi tumanida (108,3 % ni) va Qarshi tumanida (108,3 % ni), Muborak tumanida (108,2 ni), Shahrisabz tumanida (108,1 % ni) tashkil etdi.

Shuningdek, Iste`mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste`mol tovarlari hajmida 32,9 %), Koson tumanida (9,0 %), Shahrisabz tumanida (8,7 %) va Yakkabog` tumanida (8,0 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Nishon tumanida (3939,6 ming so'm), G'uzor tumanida (3155,3 ming so'm), Muborak tumanida (2310,9 ming so'm) va Qarshi shahrida (1904,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (viloyat – 923,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**2020-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**




### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1048,4 mlrd. so`mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 34,5 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kasbi tumanida (100,0 %), Chiroqchi (63,6 %), Qamashi (63,4 %), Yakkabog` tumanida (83,1 %), Shahrisabz tumanida (73,1 %), Qarshi shahrida (60,7 %) va Mirishkor tumanida (59,4 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush G`uzor tumanida (3,0 %), Dehqonobod tumanida (10,1 %), Muborak tumanida (9,6 %) va Nishon tumanida (27,7 %) kuzatildi.


### **2020 yilning yanvar - mart oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da**



**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 3,5 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 705 tasi Qarshi shahrida, 416 tasi Kitob tumanida, 318 tasi Yakkabog` tumanida, 304 tasi Shahrisabz shahrida, 299 tasi Chiroqchi tumanida, 283 tasi Qarshi tumanida, 202 tasi Qamashi tumanida, 187 tasi Shahrisabz tumanida, 195 tasi Koson tumanida, 177 tasi G`uzor tumanida, 127 tasi Nishon tumanida, 132 tasi Kasbi tumanida, 82 tasi Mirishkor tumanida, 72 tasi Muborak tumanida va 71 tasi Dehqonobod tumanida joylashgan.

**2020-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 218 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 36 tasi Qarshi shahriga, 26 tasi Chiroqchi tumaniga, 24 tasi Kitob tumaniga, 19 tasi Yakkabog` tumaniga, 14 tasi Kasbi tumaniga, 14 tasi Qamashi tumaniga, 13 tasi Shahrisabz shahriga, 12 tasi Qarshi tumaniga, 11 tasi G`uzor tumaniga, 10 tasi Koson tumaniga, 9 tasi Shahrisabz tumaniga, 9 tasi Muborak tumaniga, 8 tasi Mirishkor tumaniga, 7 tasi Nishon tumaniga va 6 tasi Dehqonobod tumaniga to'g'ri keladi.

### ***Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi***

Вилоят sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 42 ta loyiha bo'yicha 12,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020-yil yanvar-mart oylarida 18 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 6,0 martaga oshdi.

### ***Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari***

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	19	42
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	9	35
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	1,0	12,3
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	3	18

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (75) 221-32-36